

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Сеитов Азамат СОЦИОЛОГИЯ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ: УГРОЗА ИЛИ ВОЗМОЖНОСТЬ.....5	5
2. Kirsanova N.P., Geger A.E., Gonashvili A.S. YOUTH OF NON-GOVERNMENTAL UNIVERSITIES OF ST. PETERSBURG: A SOCIAL PORTRAIT.....12	12
3. Латипова Нодира, Кара Шохсанам НАСИЛИЕ КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН СОВРЕМЕННОСТИ.20	20
4. Сабирова Умида РОЛЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ.....29	29
5. Якубов Ильдар ПОНЯТИЯ СВОБОДЫ И ВРЕМЕНИ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ.....34	34
6. Аликариев Нуриддин, Абдухакимова Зиёда ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ.....41	41
7. Axmedova Feruza TIBBIYOT SOTSILOGIYASI FANINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI.....49	49
8. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA PLATFORMALARNING O‘ZIGA XOS O‘RNI.....61	61
9. Dulanbayeva Oygul MUTOLAA MADANIYATINING TARKIBI, TUZILMASI VA UNING IJTIMOIY ANAMIYATI.....69	69
10. Кан Людмила КОРЕЙСКИЙ СЛЕД В СОВРЕМЕННОЙ МУЗЫКЕ УЗБЕКИСТАНА: СОЦИОКУЛЬТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ.....76	76
11. Mamatqulova Fotimaxon DAVLAT PENSIYA TA‘MINOTI TIZIMINING JORIY HOLATI VA UNI ISLOH ETISH KONSEPSIYASI.....82	82
12. Мухаммадиева Нодира ИНВАЛИДНОСТЬ КАК ОСНОВА ИНКЛЮЗИВНОСТИ.....88	88


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Burxanov Xusniddin,

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston Milliy universiteti "Sotsiologiya"
kafedrasini mustaqil izlanuvchisi
e-mail: doktarantt@mail.ru

MILLIY SAYTLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA PLATFORMALARNING O'ZIGA XOS O'RNI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15528054>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jamiyatni tarmoqlashtirish jarayonlari umumiy kuzatuv va nazorat amaliyotlarining tarqalishiga olib kelib, unda xususiy mulk egalari va davlat tashkilotlarining odatiy chegaralari qolmasligi o'rganilgan. Shuningdek, insoniyat bir vaqtning o'zida aql bovar qilmaydigan hajmdagi ma'lumotlarni yaratib, undan vaqt va masofadan qat'i nazar foydalanish imkoniyatiga va ulanish uchun yangi texnologik vositalarga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Umumiy miqdorlashtirish tendensiyasi kuchayishi ijtimoiy tengsizlikning yangi mexanizmlari tarqalishiga olib kelishi bo'yicha fikrlar berilgan. Shu bilan birga, raqamli jamiyatda algoritmik tizimlar avtomatlashtirilib, optimallashtirish va faoliyat samaradorligini oshirish biroq, oldindan prognoz qilib bo'lmazligi va ta'sirning doimo ijobiy bo'lmaganligi sababli natija ko'zlangandek bo'lavermazligi yoritilgan. Bundan tashqari, platformalar raqamli jamiyatning muhim elementiga aylanayotganligi va ularning mavjudligi, faoliyati ilmiy asoslangan ma'lumotlar va algoritmlashtirish jarayonlari bilan belgilanishi hamda qadriyatlarining yangi tartiblari, nazorat va boshqaruvning yangi ijtimoiy mexanizmlari shakllanib, jamiyat, biznes va davlat manfaatlarini hisobga olish imkoniyatiga kengayishi ko'rsatilgan. Shuningdek, yangi taraqqiyot bosqichida raqamlashtirish muntazam ravishda tarqalishi aniq ekanligi isbotlangan.

Kalit so'zlar: Internet, axborot xavfsizligi, raqamli jamiyat, datifikatsiya, algoritm, sun'iy intellekt, milliy saytlar, texnologiya, raqamli media, ijtimoiy ta'sir, ijtimoiy institut.

Хусниддин Бурханов,

доктор философии (PhD) по социологическим наукам,
независимый соискатель кафедры «Социология»
Национального университета Узбекистана
e-mail: doktarantt@mail.ru

РОЛЬ ПЛАТФОРМ В ТРАНСФОРМАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ САЙТОВ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается, как процессы сетевой интеграции общества привели к распространению всеобщих практик наблюдения и контроля, разрушая традиционные границы между владельцами частной собственности и государственными организациями. Также было показано, что человечество обладает способностью одновременно создавать

невероятный объем информации, получать к ней доступ независимо от времени и расстояния, а также имеет новые технологические средства связи. Было высказано предположение, что усиливающаяся тенденция всеобщей количественной оценки приведет к распространению новых механизмов социального неравенства. В то же время подчеркивается, что в цифровом обществе алгоритмические системы можно автоматизировать, оптимизировать и повысить эффективность работы, однако результаты могут оказаться не такими, как ожидалось, поскольку их невозможно предсказать заранее, а воздействие не всегда положительное. Кроме того, показано, что платформы становятся важным элементом цифрового общества, а их существование и деятельность определяются научно обоснованными данными и алгоритмическими процессами, формируются новые системы ценностей, новые социальные механизмы контроля и управления, расширяющие возможности учета интересов общества, бизнеса и государства. Также доказано, что на новом этапе развития цифровизация, безусловно, будет неуклонно распространяться.

Ключевые слова: Интернет, информационная безопасность, цифровое общество, датафикация, алгоритм, искусственный интеллект, национальные веб-сайты, технологии, цифровые медиа, социальное воздействие, социальный институт.

Khusniddin Burkhanov,
Doctor of Philosophy in Sociology (PhD),
Independent researcher of the «Sociology»
Department of the National University of Uzbekistan
e-mail: doktorantt@mail.ru

THE OWN ROLE OF PLATFORMS IN THE TRANSFORMATION OF NATIONAL SITES

ABSTRACT

This article examines how the processes of networkization of society have led to the spread of general surveillance and control practices, in which the usual boundaries of private property owners and state organizations no longer exist. It is also shown that humanity has simultaneously created an incredible amount of information, has the ability to use it regardless of time and distance, and has new technological means of communication. The idea is given that the strengthening of the general trend of quantification will lead to the spread of new mechanisms of social inequality. At the same time, it is highlighted that algorithmic systems in the digital society are automated, optimized and increase the efficiency of their work, but the result may not be as expected due to the fact that they cannot be predicted in advance and the impact is not always positive. In addition, it is shown that platforms are becoming an important element of the digital society and that their existence and activity are determined by scientifically based data and algorithmization processes, and new orders of values, new social mechanisms of control and management are being formed, expanding the possibility of taking into account the interests of society, business and the state. It is also proven that digitization will definitely spread systematically at a new stage of development.

Keywords: Internet, information security, digital society, datafication, algorithm, artificial intelligence, national sites, technology, digital media, social impact, social institution.

KIRISH

Internet tarmog‘i tizimida axborot xavfsizligini ta‘minlashda milliy segmentlar faoliyatini rivojlantirish maqsadida ta‘kidlash lozimki, sohadagi gnoseologik bo‘shliqni bartaraf qilish uchun ushbu yo‘nalishda muntazam tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning murakkabligi kiber internet tarmog‘ida joylashgan axborotlar hajmining keng masshtabdaligi, sotsiotexnik jihatdan qiyinligi, bevosita empirik sotsiologik kuzatuvlar davomida avtomatik tahlil natijalari, kompyuterlar orqali kontent tahlil olib borishning murakkabligi bilan bog‘liq.

Bundan tashqari, global tarmoqdagi axborotlar ko‘lami, informatsion jarayonlarning jadalligi, odatdagi kontent tahlil, tadqiqot usullari orqali olinadigan natijalar bugungi davr talablariga to‘liq javob bermaydi.

Mamlakatimizdagi axborot xavfsizligini ta‘minlash uchun Internet tarmog‘ida milliy saytlar segmenti o‘rnini oshirish, uning mazmunini demokratik islohotlar talablari darajasidagi axborot majmui bilan ta‘minlash maqsadga muvofiq. Bu borada ushbu sohani platformalashtirish lozim. Platformalashtirish bu raqamli platformalarning jamiyat hayotining turli sohalariga kirib borishi natijasida mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy amaliyotlar, milliy qadriyatlarni mustahkamlash usullari, jamoatchilik nazorati va boshqaruvi mexanizmlari chuqur o‘zgarishlarga uchraydi. Platformatsiyaning ta‘sir ko‘lami bo‘yicha sanoatlashtirish yoki elektrlashtirish bilan taqqoslanadi [1, – B.19]. “Platforma” atamasi 2000-yillarning boshida texnologiya sanoati va biznes tadqiqotlarida faol qo‘llanilib, natijada ushbu tadqiqot istiqbollari bir-birini samarali ravishda to‘ldiradi [2, – B.22].

METODOLOGIYA

Jamiyatimizda axborot xavfsizligini ta‘minlashning samarali vositalaridan biri hisoblangan milliy segment saytlarining qiziqarliligini ta‘minlash, koronavirus pandemiyasi kabi favqulodda holatlar davrida inson manfaatlarini himoyalashga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ushbu masalada platformalashtirish katta yordam beradi. Bu borada platforma odamlar, ma‘lumot va tovarlarni bog‘laydigan raqamli vositachi sifatida tushuniladi [3, – B.293]. Tadqiqotchilar A.Kasilli va J.Posada platformani oddiy foydalanuvchilar, tashkilot, kompaniya va davlat idoralari xizmatlar va ko‘plab jamoalar yaratadigan dasturiy yoki apparat infratuzilmasi sifatida belgilaydi [4, – B.306]. Shu bois, kommunikativ va boshqaruv mantig‘ida platforma mexanizmi ustunlik qiladi. Masalaga shu nuqtai nazar bilan yondoshsak platformalar Internet tarmog‘ining asosiy tijorat mantig‘i hisoblanadi [5, – B.304]. Xorijlik olim M.Steinberg platformalarni kontent bilan chambarchas bog‘liq holda belgilashni taklif qilib, platforma aynan madaniy mahsulotlarni tarkib sifatida yaratish, uni sotish uchun texnologik va bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitlarini yaratadi. Shu bois bugungi kunda “Yandex”, “Fasebook”, “Twitter”, “Instagram”, “Telegram” kabi platformalar “o‘zini ifoda etish, muloqot, hamkorlik va biznes uchun platformalar” [6, – B.215] sifatida xizmat qilmoqda. Shu sabab, hozirda raqamli makonning eng nufuzli ishtirokchilaridan biri platformalardir.

ASOSIY QISM

Internet foydalanuvchilari orasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalariga ko‘ra, talabalar milliy saytlardan foydalanishi jadallashgani kuzatildi. Respondentlarning 10% raqamli jamiyat mazmuni, uning maqsadi, rivojlanish jarayoni haqida ma‘lumot olganini, 20% tadbirkorlik haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lganini, 15% badiiy adabiyot o‘qishda manba rolini bajarishini qayd etishgan. So‘ralganlardan 15% kursdoshlar bilan aloqa qilishi, axborot almashuvda foydalanishi, 40% mutaxassisligi haqida axborot bazasidan foydalanishini bildirgan.

Bu borada tadqiqotchilar tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarda ishtirok etgan respondentlarning 80 foizi ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlardan faol foydalanadilar, buning asosiy sabablari do‘stlar va boshqalar bilan muloqot qilish istagi, shuningdek, turli mavzularda fikr bildirish imkoniyati bilan bog‘liqligini ta‘kidlashdi [7].

Empirik sotsiologik tadqiqot natijasida Internet tarmog‘ida mamlakatimiz axborot xavfsizligiga salbiy ta‘sir qiladigan 2 ta yo‘nalishdagi xavf mavjudligi aniqlandi. Bular:

birinchisi, global Internet saytlarida tarqatilayotgan O‘zbekistonga nisbatan yolg‘on va tajovuzkor mazmundagi axborot majmui;

ikkinchisi, hozirgi kunda kiberjinoyatchilik holatlari mavjud, ya‘ni kompyuterdagi konfederal xarakterdagi axborotga oid shaxslararo aloqa xatlari, shaxsiy xususiyatga ega bo‘lgan ma‘lumotlar bazasini Internet tarmog‘i orqali jamoatchilikka beruxsat ma‘lum qilish holatlari.

Mamlakatimizdagi axborot xavfsizligini ta‘minlash uchun Internet tarmog‘ida milliy saytlar segmenti o‘rnini oshirish, uning mazmunini demokratik islohotlar talablari darajasidagi axborot majmui bilan ta‘minlash maqsadga muvofiq. Mazkur sohada kuzatuvlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

birinchidan, Internet tarmog'ida axborotning bir qismi tashqi xavfni vujudga keltirdi. Uning asosiy sababi O'zbekistonga xorijdan turib axborot xuruji tashkil etilib, ushbu jarayonda xalqaro kiber guruhlar va xorijiy tashkilotlar vakillari birgalikda faoliyat olib bormoqda. Bunda axborot mazmunini ataylab buzib talqin qilish, islohotlarning ijobiy natijalari, boshqaruv tizimidagi kamchiliklarni bo'rttirib ko'rsatish, unga nisbatan aholida ishonchsizlik vujudga keltirishga urinish, yoshlar ongiga salbiy ta'sir o'tkazishga harakat qilinmoqda;

ikkinchidan, Internet tarmog'ida jurnalistlik kasbiga ega bo'lmagan kommunikatorlar tomonidan bloglar, internet forum, ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatidan foydalanib, axborot maydonida ishtirok etish kuchayib bormoqda.

Darhaqiqat, axborot makonida axborotlashuv jarayoni mazmuniga nisbatan bo'lgan tashqi xavfni tashkil qiluvchi omillar o'z faoliyatini individual holda yoki muayyan ijtimoiy guruhlar tarkibida tashkil qilishi mumkin. Mutahassislar fikricha, Internet auditoriyaga tajovuzkorona ta'sir qilishning quyidagi usullari mavjudligini qayd etishgan. Bular:

birinchisi, davlatda konstitutsiyaviy tizimga qarshi axborot xavflari, jumladan, terroristik mazmundagi, radikal diniy g'oyalar va vayronkor mafkuralarni jamiyatda, aholi, ayniqsa, yoshlar orasida tarqatilishi;

ikkinchisi, shaxs ongini manipulyatsiya qilish, uning xulqiga nisbatan dasturlashtirish texnologiyalaridan foydalanib, o'z g'arazli maqsad va fikrlarini amalga oshirish uchun bo'lgan tajovuzkorona harakatlar;

uchinchisi, turli yot g'oya va mafkuralarni Internet foydalanuvchilari orasida tarqatish, muayyan ijtimoiy jarayonlar va ijobiy yutuqlarga salbiy ta'sir qiluvchi asoslanmagan dalillar, yolg'on ma'lumotlarni joylashtirish;

to'rtinchisi, Internet tarmog'ida mamlakatda xakerlar va kiberjinoyatchilar g'oyalarini keng tarqatishga urinish, noqonuniy harakatlarini birga olib borishga chorlash, tajovuzkorona maqsadni ijtimoiy hayotda amalga oshirish uchun hamkorlikda urinishlar;

beshinchisi, jamiyatda aholi orasida mish-mishlar, vahimalar ko'tarish orqali sun'iy ravishda mamlakatdagi barqaror vaziyatni izdan chiqarishga mo'ljallangan, tasdiqlanmagan voqealiklar, xabarlarini tarqatishga bo'lgan urinishlar kabi salbiy holatlar kuzatilmoqda.

Mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida O'zbekistonda ilk bor katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazi barpo etildi. Ushbu markazning Toshkent viloyati Zangiota tumanida barpo etilishi barcha sohalarini raqamlashtirish, axborot tizimi, xizmatlarni elektronlashtirishga yordam beradi. Bunday imkoniyatning yaratilishi O'zbekistonning masofaviy xizmatlar bo'yicha mintaqada yetakchiga aylanib borayotganligidan dalolatdir. O'z navbatida bunday faoliyat xalqaro talablarga mos holda "Datamarkaz" tashkil qilish zaruriyatga aylandi. Bunda axborot tarqatish va informatsion texnologiyalar markazida Xitoydan keltirilgan, ya'ni "Huawei" kompaniyasi bilan hamkorlikda 20 petabayt xotiraga ega tizim tashkil etildi. 580 server, umumiy elektr quvvati 5 megavattli dizel generatorlar tizimi uzluksiz ishlashini ta'minlaydi. Bunday faoliyat natijasida ma'lumotlar markazi xalqaro "Uptime" instituti tomonidan beriladigan "TIER III" sertifikatiga ega bo'ldi.

Tadqiqotchi T.Gillespiening fikricha, platformaning asosiy funksiyalaridan biri – kontent moderatsiyasining barcha xususiyatlarini batafsil tavsiflab, raqamli jamiyatda moderatsiya faktining o'zi ijtimoiy media platformalari vosita va institutlarda, sodir bo'layotgan transformatsiyalarni madaniy hodisa sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Zero, kontent moderatsiyasi platformaning asosiy xususiyati hisoblanib, ular moderatsiyalashni, ya'ni (ma'lumotni o'chirish, filtrlash yoki blokirovka qilishni) o'z ichiga olsa, tavsiya qilish, ya'ni yangiliklar tasmasi, mavzular ro'yxati, moslashtirilgan takliflar orqali namoyon bo'ladi va kontentni monitoring qilish, ya'ni mavzuli tarkibni taklif qilish, matnli bog'liqlik, eng muhimiga birinchilardan bo'lib ustuvorlik berish orqali amalga oshiriladi. T.Gillespi ushbu holatni moderatsiya platformalariga foyda keltiradigan "mahsulot" [8], deb hisoblaydi.

Boshqa tadqiqotchi esa platformalarni "ikki yoki undan ortiq guruhlariga o'zaro ta'sir o'tkazish imkonini beruvchi raqamli infratuzilmalar" [9], deb hisoblaydi. Ular turli xil foydalanuvchilarni bog'laydigan o'zaro vositachilardir: xaridorlar, reklama beruvchilar, xizmat

ko'rsatuvchi va mahsulot provayderlari, ishlab chiqaruvchilar, hatto, jismoniy obyektlar. Aksariyat platformalar abonentga o'z mahsulotlari, xizmatlari va bozorlarini yaratishga imkon berib, ularga turli biznes vositalarining arsenalini taklif qiladi. Platformalar ma'lumotlarni olishda ular (tabiiy va ishlab chiqarish jarayonlari, odamlarning o'zaro ta'siri va boshqalar) ustidan nazorat qilish bo'yicha asosiy biznes modellariga aylanmoqda. N.Srnichekning xulosasiga ko'ra, Ushbu platformalarga nisbatan ular o'ziga xos "kon asboblari"dir [10]. Raqamli jamiyatda platformalarning institutsional mexanizmlari ishtirokchilar uchun ochiq infratuzilmani yaratib, o'zining ishlash qoidalarini belgilaydi.

Platformaning asosiy vazifasi – foydalanuvchilar o'rtasidagi aloqalarni ta'minlash, o'zaro tovarlar yoki ijtimoiy valyuta almashinuvini osonlashtirish va barcha ishtirokchilar tomonidan qiymat yaratishga hissa qo'shishdan iborat [11]. O'zaro manfaatli hamkorlikni ta'minlash. X. van Deyk va uning hamkasblari tomonidan platformalarning ta'rifiga qo'shilgan holda, unga ko'ra, platformalar foydalanuvchi va yetkazib beruvchilar o'rtasidagi o'zaro shaxsiy aloqalarni ta'minlab, shakllantiriladigan va qayta dasturlashtiriladigan raqamli infratuzilmalar sifatida qaraladi. Bunday o'zaro ta'sirlar ma'lumotlarni yig'ish, algoritmik qayta ishlash, monetizatsiya va tizimli aylanish orqali tashkil etiladi [12]. "Platforma jamiyati" konsepsiyasi mualliflari, ularni faqat yangi iqtisodiy hodisa yoki faqat texnologik infratuzilmaning bir qismi sifatida ko'rib chiqish noto'g'ri ekanligini qayd etishgan. Platforma – foydalanuvchilar o'rtasida o'zaro aloqani tashkil etish uchun mo'ljallangan dasturlashtiriladigan arxitektura [13].

Platformatsiya muayyan guruh, institutlarning faoliyati, iqtisodiy operatsiyalar, ijtimoiy va madaniy amaliyotlarni amalga oshirishni belgilaydi. "Platforma jamiyati" atamasi raqamli platformalar va mavjud ijtimoiy tuzilmalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'z ichiga oladi. Aynan platformalar zamonaviy ijtimoiy tuzilmalarni yaratadi, deya xulosa qiladi mualliflar [14]. Shu munosabat bilan raqamli platformaning o'ziga xos xususiyatlari, uning asosiy komponentlarini tavsiflash orqali ko'rib chiqiladi. Platformaning ishi algoritmlar va dasturiy interfeyslar majmuasi yordamida tashkil etilib, avtomatlashtirilgan. Platforma ishlashining manbai — ma'lumotlar oqimi hisoblanadi. Uning ishlashi ma'lum bir biznes modeli doirasidagi mulkchilik munosabatlari bilan rasmiylashtirilib, platformani tartibga solish foydalanuvchi shartnomasi orqali amalga oshiriladi [15].

"Platforma jamiyati" tushunchasi platformalarning zamonaviy jamiyatdagi rolini ochib berishga xizmat qiladi. Ularning tarqalish ko'lamini jamiyat hayotini tashkil etishga ta'sir ko'rsatadi. Bunda ma'lumotlarni yig'ish, ulardan samarali foydalanish va platformalarda axborotni tanlash jarayonlarida jamiyat hayotining turli sohalaridagi shaxsiy va jamoat manfaatlari to'qnashuvi mavjudligi oydinlashadi. Xorijlik mutaxassislar hozirda dunyoda 2 ta eng yirik platforma ekotizimlari – Xitoy va Amerika platformalari mavjudligini e'tirof etishgan. Xitoyda ushbu ekotizimning yadrosi — "Tencent", "Alibaba", "Baidu", "JD.com" va "DiDini" o'z ichiga olgan "Katta beshlik"dir. "Alihabet", "Microsoft", "Facebook", "Apple", "Amazon" – Shimoliy Amerika va Yevropadagi raqamli makonda hukmronlik qiluvchi ekotizim yadrosi hisoblanadi. Hozirda "Yandex", "Mail" kabi mahalliy infratuzilma platformalari ham jamiyatdagi axborot almashinuvida jiddiy ishtirokchilar hisoblanadi [16]. Natijada davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari va biznes kompaniyalari ushbu ekotizimning o'zagiga bog'liq. Ushbu yadro bilan bog'lanmagan platformalar esa qimmatli axborot resurslari va foydalanuvchi ma'lumotlariga kirish huquqiga ega. Aslida, bunday holat raqamli tafovutning yana bir jihatiga misol bo'la oladi. Bu platformalar ekotizimiga tabaqalashtirilgan kirish natijasida unda faoliyat yurituvchilar global makondagi mavjud ekotizim doirasida xulosa qilishadi xolos.

Boshqacha aytganda platforma tizimlarida haqiqiy erkin jamoat maydoni yo'q. Platformalar barcha mavjud ijtimoiy mexanizmlarni qamrab olib, davlat va turli ijtimoiy institutlar (masalan, ta'lim yoki sog'liqni saqlash muassasalari) o'z platformalarini eng yirik xususiy platformalar asosida yaratishadi. Xorijlik mutaxassislar platforma ekotizimini tavsiflovchi 5 ta paradoksga e'tibor qaratishgan:

1. Ekotizimning tuzilishi tenglik kabi ko'rinadi, biroq, ayni paytda u ma'lum bir ierarxiyaga muvofiq qurilgan.

2. Ekotizim bir qator shaxslar va kompaniyalarning mulki hisoblansada, ammo, ayni paytda u jamoat qadriyatlariga sodiqligini e'lon qiladi.

3. Ekotizim to'liq betaraflik taassurotini beradi, lekin uning arxitekturasi muayyan bir g'oya va mafkuraviy qadriyatlarni o'z ichiga oladi.

4. Ekotizimning ta'siri mahalliy bo'lib ko'rinsada, biroq, uning ko'lami va ta'sir doirasi global hisoblanadi.

5. Inson tomonidan yuqoridan pastga boshqaruv o'rniga ekotizim "mijozlarning imkoniyatlarini kengaytirish" orqali pastdan yuqoriga boshqaruvdir [17]. Bu ekotizimning yuqori darajada markazlashgan tashkiliy tuzilmasi foydalanuvchilar uchun noaniq bo'lib qolmoqda. Platforma jamiyati konsepsiyasi mualliflari platforma ekotizimining asosiy qismi bo'lmagan kompaniyalar qanchalik zaif ekanligini ko'rsatishgan. Chunki har qanday platforma u yoki bu tarzda ekotizimning infratuzilma axborot xizmatlariga bog'liq. Masalan, "Airbeb" sayyohlik turar-joy xizmati platformasi "Google"ni "joylashtiradi". Xaritalar uning interfeysida standart funktsiya sifatida hamda, "Facebook" identifikatsiya xizmatlarini ham o'z ichiga oladi. Bunda "Google" uy egalarini va potensial mehmonlarni tekshirish uchun xizmat qiladi. Shu bois "Katta beshlik" sanoat platformalari portlashi va platformalar ekotizimining asosiy xizmatlari bilan birlashtirilgan ko'plab veb-saytlar va ilovalardan foyda ko'radi. Natijada foydalanuvchi ma'lumotlarining misli ko'rilmagan miqdori butun tarmoq bo'ylab ekotizim va ilovalar ekotizimi qurshovida bo'ladi. Demak, "Katta beshlik" deyarli barcha biznes sohalarida o'z ishtirokini tez sur'atlar bilan kengaytirib, daromad ko'rishni davom ettirmoqda.

Raqamli platforma infratuzilmasining o'zagini tavsiflashda jismoniy infratuzilma – temir yo'llar, avtomobil yo'llari, dengiz yo'llari, havo harakatlarini boshqarish tizimlari yoki Internetning o'zida yaratish bilan takomillashib boraveradi. Biroq, asosiy farq shundaki, bunday infratuzilma davlat va xususiy investitsiyalar hisobiga yaratilgan. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy, iqtisodiy huquqiy jihatdan davlat tashkilotlari, jamoat va nodavlat tashkilotlari ekotizimning o'zagi bilan bog'lanmay, amalda avtonom holda to'liq faoliyat yuritmaydi. Ommaviy va notijorat platformalar "Facebook"ga tayansa, "Google" qimmatli axborot resurslari va foydalanuvchi ma'lumotlariga kirish uchun xizmat qiladi. Garchi bunday holat tizimga kirish va qidiruv reytingi ko'rinishi uchun muhim hisoblansa-da, biroq, yaxlit olganda hozirgi vaqtda mavjud platforma ekotizimida haqiqiy jamoat maydoni mavjud emas.

Bunday platformalar nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy subyektlarni bog'laydi, balki ularning bir-biri bilan qanday bog'liqligini ham belgilaydi. Ushbu jarayon mavjud platformalar orqali qadriyatlar va ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishning yangi tizimlarini yaratadi. Demak, bu kabi platforma kapitalizmi shaxsni ekspluatatsiya qilishning eng "murakkab", ayni paytda eng "yalpi" shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki u ilgari miqdorni aniqlash, natijada monetizatsiya qilish mumkin bo'lmagan ijtimoiy hayot sohalarini tijoratlashtirishga imkon beradi [18]. X. van Deyk va uning hamkasblari xulosasiga ko'ra, platforma faoliyati kimning manfaatlariga xizmat qiladi, qanday qadriyatlar xavf ostida va undan kim foyda ko'radi, degan savollar platforma jamiyatida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan munozaralarda asosiy o'rinni egallaydi. Darhaqiqat, raqamli platformalar takomillashuvi deyarli butunlay noaniq bo'lgan "qora nuqta" jamiyatiga aylanib bormoqda. Chunki ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar algoritmlar, biznes modellar va jamoatchilik nazorati uchun ochiq bo'lmagan ma'lumotlar oqimlarida yashiringan bo'ladi. Ijtimoiy media platformalari neytral "asboblardan" emas, balki ular bir ma'lumotni ko'rinadigan qilib, boshqasini yashirishadi.

Algoritmik filtrlash mexanizmlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, ya'ni hayotning deyarli barcha sohalarida ijtimoiy faollikni shakllantiradi. Bularning barchasi xavfsizlik, maxfiylik, oshkorlik va haqiqatni anglash masalalari bilan bog'liq yangicha tarzda fundamental jamoat qadriyatlari hisoblanadi. Ayrim mutaxassislar xulosasiga ko'ra, "Raqamli platformalarni to'liq nazorat qilish haqidagi mavjud taxminlar ijtimoiy yoki sun'iy intellektning inson xatti-harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni sharhlash uchun mavjud "chegarasi"ni raqamlashtirish uning poydevoridan imkonsizligi bilan buziladi" [19]. Demak, yangi platformalar jamiyatining shakllanishiga ehtiyotkorlik va optimizm bilan qarash imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli jamiyatda milliy saytlar transformatsiyasi jarayonida platformalarning o'ziga xos o'rni quyidagilar bilan nazariy jihatdan asoslanadi.

1. Raqamli jamiyatning shakllanishi, uning rivojlanishini o'rganishda uning nazariy metodologik asos muhim o'rin egallaydi. Bunda taraqqiyotning jadallashuvi jamiyatdagi muhim bevosita yoshlarning muttasil sur'atda axborot bosimiga uchrayotganligida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi bevosita yoshlarning Internet tarmog'idan foydalanish madaniyatini shakllantirish orqali ularning milliy saytlar darajasini oshirish, ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish natijasida demokratik islohotlar faolligini oshiradi.

2. Mamlakat yangi taraqqiyot bosqichi sharoitida aholining axborot texnologiyalari, uni tarqatish mexanizmlar orqali jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari, milliy taraqqiyot bosqichi mazmuni va umuminsoniy qadriyatlarining singdirilishi milliy veb-saytlardan samarali foydalanishga olib keladi. Raqamli jamiyat texnologik infratuzilmasining 4 ta elementi – aloqa tarmoqlari, ilmiy asoslangan ma'lumotlar texnologiyalari, algoritmlar va platformalar raqamlashtirishning mohiyatini tashkil etuvchi jarayonlar asosini tashkil qiladi. Ushbu jarayonlarning har biri tarmoqlashtirish, ma'lumotlarni aniqlash, algoritmlashtirish va platformalashtirish tobora raqamli bo'lib, jamiyatni sifat jihatidan o'zgartiradigan jiddiy ijtimoiy oqibatlariga olib keladi.

3. Jamiyatni tarmoqlashtirish jarayonlari umumiy kuzatuv va nazorat amaliyotlarining tarqalishiga olib kelib, unda xususiy mulk egalari va davlat tashkilotlarining odatiy chegaralari qolmaydi. Shu bois, insoniyat bir vaqtning o'zida aql bovar qilmaydigan hajmdagi ma'lumotlarni yaratib, undan vaqt va masofadan qat'i nazar foydalanish imkoniyatiga va ulanish uchun yangi texnologik vositalarga ega. Natijada datifikatsiya jarayonlari, metrik jamiyat va madaniyatning tarqalishini rag'batlantiradi. Shuning uchun yangi qiymat tartiblarini shakllantirish, umumiy miqdorlashtirish tendensiyasi kuchayishi ijtimoiy tengsizlikning yangi mexanizmlari tarqalishiga olib keladi.

4. Platformalar raqamli jamiyatning muhim elementiga aylanmoqda. Ularning mavjudligi, faoliyati ilmiy asoslangan ma'lumotlar va algoritmlashtirish jarayonlari bilan belgilanadi. Natijada qadriyatlarining yangi tartiblari, nazorat va boshqaruvning yangi ijtimoiy mexanizmlari shakllanib, jamiyat, biznes va davlat manfaatlarini hisobga olish imkoniyatiga kengayadi. Yangi taraqqiyot bosqichida raqamlashtirish muntazam ravishda tarqalishi aniq.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Dijck J. van. Seeing the Forest for the Trees: Visualizing Platformization and Its Governance // *New Media & Society*. 2020. – P.1–19.

2. Dijck J. van, Poell T., Waal M. de. The Platform Society: Public Values in a Connective World. -Oxford: Oxford University Press, 2018. – P.226.

3. Casilli A.A., Posada J. The Platformisation of Labor and Society // *Society and the Internet. How Networks of Information and Communication are Changing Our Lives*. Oxford University Press, 2019. – P.293.

4. Casilli A.A., Posada J. The Platformisation of Labor and Society // *Society and the Internet. How Networks of Information and Communication are Changing Our Lives*. Oxford University Press, 2019. – P.306.

5. Steinberg M. The Platform Economy. How Japan Transformed the Consumer Internet. Minneapolis. – London: University of Minnesota Press, 2019. – P.304.

6. Gillespie T. The Platform Metaphor, Revisited - *Culture Digitally*. - Oxford: Oxford University Press, 2018. – P.215.

7. Tashmuhamedova D. "O'zbekiston yoshlari va virtual olam: tadqiqot natijalari asosida"// Monografiya. – Toshkent: «Complex print» nashriyoti, 2024. – B.41.

8. Gillespie T., *Custodians of the Internet*. New Haven & London: Yale University Press, 2018. – P.288.

9. Срничек Н., *Капитализм платформ*. – М.: «Изд. Дом» ВШЭ, 2020. – С.25.

10. Срничек Н., Капитализм платформ. – М.: «Изд. Дом» ВШЭ, 2020. – С.28.
11. Паркер Д., ван Альстин М., Чаудари С. Революция платформ. Как сетевые рынки меняют экономику — и как заставить их работать на вас. - Москва: Мысль., 2017. – С.304.
12. Poell T., Nieborg D., Dijck J. van. Platformisation // Internet Policy Review. 2019. Vol.8. No.4. – P.1–13.
13. Dijck J. van, Poell T., Waal M. de. The Platform Society: Public Values in a Connective World. – Oxford: Oxford University Press, 2018. – P.226.
14. Poell T., Nieborg D., Dijck J. van. Platformisation // Internet Policy Review. 2019. Vol.8. No.4. – P.1–13.
15. Dijck J. van, Poell T., Waal M. de. The Platform Society: Public Values in a Connective World. – Oxford: Oxford University Press, 2018. – P.226.
16. Еферин Я.Ю., Россотто К.М., Хохлов Ю.Е. Цифровые платформы в России: Конкуренция между национальными и зарубежными многосторонними платформами стимулирует экономический рост и инновации // Информационное общество. 2019. №2. – С.16–34.
17. Dijck J. van, Poell T., Waal M. de. The Platform Society: Public Values in a Connective World. - Oxford: Oxford University Press, 2018. – P.226.
18. Мартыненко Т.С. Robert Hassan: The Condition of Digitality: A Post-modern Marxism for the Practice of Digital Life. - London: University of Westminster Press, 2020. – P. 212.
19. Маркеева А.В., Гавриленко О.В. Цифровая платформа как новый экономический актор и новая инстанция социального контроля // Вестник Московского университета. Сер.7: Философия. 2019. №5. – С.29–48.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000